

Ochilish marosimi tabrik nutqi

Salom. Bugun Yaponiya xalqaro maktabi ochilganidan va barchangiz bilan shu yerda uchrashganimdan juda xursandman. Hozir tanishtirilgandek mening ismim Shimomachi.

Men ushbu maktabda direktor o'rinbosari va ijrochi maslahatchisiman.

Darhaqiqat, hozirda Yaponiyada O'zbekiston asta-sekin ommalashmoqda. Har juma kuni ertalab televizorda, O'zbekiston haqida maxsus lavha chiqadi, buni ko'rgan bir do'stim O'zbekiston ajoyib davlat, dedi. Shunaqa gaplarni eshitsam, o'zimni maqtashayotgandek xursand bo'laman.

Ishonchim komilki, bu asta-sekinlik kelajakda keng ommalashtiriladi. Biror narsa ommalashishi uchun uning oldidan asta-sekinlik davri bo'lishi muhimdir. Shu mash'alni yorituvchi insonlar kelajakda innovatsiya va o'zgarishlar yaratishda markaziy shaxs bo'lishiga ishonaman.

Shunday qilib, maktab direktori Eldor Eshkulovich, va maktabning investori Elmurod Jurakulovich O'zbekistonda ilk bor yaponcha ta'limni joriy etishni oldindan ko'ra bilgan, bu "Yaponiya xalqaro maktabi" haqiqatan ham O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi a'loqalarni mustahkamlaydigan va har ikki davlatning kelajagini porloq qiladigan poydevorga aylanadi deb oylayman.

Yangi tashkil etilgan maktabning "hozirgi nuqtaga" kelgani bu maktabni boshqarishda qatnashganlarning mashaqqatlari, kelajagini porloq qiladigan bolalar bilan to'ldirilgan "hozirgi zamondir".

Men bilan birgalikda rahbarlik va nazorat qilgan KEI Advance Xiromitsu Sakata, Iivate universiteti professori, ilm-fan shoulari orqali bolalarga ilm-fan zavqini yetkazish faoliyatini qo'llab-quvvatlagan Koichi Takagi va Vako universiteti professori, boshlang'ich maktabning quyi sinflari uchun so'rovga asoslangan sinf modelini taqdim etgan Xiroyuki Kagava va Katahira Engineeringning Rasul Abdukadirov O'Abdukadirovengineeringning Rasunflari uchun soda ushbu maktabni tashkil etish paytida hamkorlik qildik.

Matematika darslari uchun Yapon uslubdagi qo'shimcha darslik yaratish, materilallarni ta'minlashdan tashqari, men ko'p marotaba o'qituvchilar uchun treninglar va bolalar uchun ochiq darslar o'tkazdim. Shu vaqt ichida o'zbek bolalarining ko'zlarida porlashi, o'qituvchilarning ijobiy munosabati meni hayajonga soldi. O'zbekistonga yaponcha ta'lim berish O'zbekistonni qo'llab-quvvatlashning bir ko'rinishi bo'lib, shu bilan birga, Yaponiyaning ta'lim muammolaridan xabardor

bo'lishimizga yordam beradigan maslahatlar.

Endi, "yaponcha ta'lim" o'zi nima? Balki bu kimono kiyishmi yoki tushlikda sushi yoki ramen yeyishmi. Albatta bunday emas. Yoki, maktabdan keyin hamma bir vaqtda tozalashimi? Menimcha, bu ham farq qiladi. Yapon uslubidagi ta'lim Yaponiyada amalga oshirilayotgan ishlar shakli va uslubiga taqlid qilishni anglatmaydi. Muhimi, harakat ortidagi Rux.

Yaponiya maktablarida bolalarni sifatli mehnatga va axloqqa o'rgatishadi, chunki ular bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishdan oldin bolalarning "Ruxini" tarbiyalash kerak deb hisoblaydilar. Bu, natijada, mustaqil fikrlashni va boshqalarga mehribon bo'lishni o'rganishga olib keladi. Buni men Yaponiya uslubidagi ta'lim ruhi deb o'ylayman.

Bundan tashqari, bu akademik qobiliyatni yaxshilash bilan kuchli aloqaga ega. Chunki his-tuyg'ularni rivojlantirish orqali ongning sezgirligi oshadi, bu bizga nafaqat mohiyatni tushunish qobiliyatini beradi, balki o'z-o'zidan o'rganishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Bundan tashqari, mehribonlikni o'rgangan odamlar boshqalarni yaxshilash orqali o'z qobiliyatlarini aniqlay olishlarini bilishadi. Shuningdek, u bizga dunyo qiyinchiliklariga qarshi tik turish uchun jasorat va o'zimizga kuch beradi.

Men maktabda devorlardagi ajoyib rasmlarni ko'rdim va bunday muhit bolalarda Ruxan rivojlanishga yordam beradi deb o'yladim. Devor rasmlaridan birida Eynshteyndan iqtibos bor edi.

Ta'lim haqiqatni o'rganish emas, balki fikrlashga o'rgatishdir.

Bu yaponcha ta'lim deb o'ylagan narsamga mos keladigan so'zlar. Kelajakdagi jamiyatda ko'p narsalarni yodlash yoki boshqa odamlarga qaraganda tezroq hisoblay olishning foydasi yo'q. Buning o'rniga, yangi ixtirolar muhim. Biror narsaga diqqatni jamlash va uni qat'iyat bilan o'ylash. Boshqa tomondan, hamkasblar bilan hamkorlik qilish orqali yangi qiymatni topish. Menimcha, ana shunday tafakkur ongini yaratuvchi hissiyot kuchi va yaponcha ta'limning mohiyatidir.

Kuni kecha men Toshkent maktabida bir nechta trening o'tkazdim. Boshqa tomondan, hamkasblar bilan hamkorlik qilish orqali muloqot qildik. Bir o'qituvchi shunday dedi: "Men bolalar hayajonlanadigan va ertaga maktabga kelishni xohlaydigan maktab yaratmoqchiman". Yana bir o'qituvchi esa "Men o'quvchilar ham, o'qituvchilar ham o'z baxtlarini baham ko'rishlari va kengaytirishlari mumkin bo'lgan maktab yaratmoqchiman" va "Buning uchun qo'limdan kelgan barcha ishni qilmoqchiman" dedi.

Bu so'zlardan juda ruhlandim. Bu o'qituvchilar allaqachon "his-tuyg'ularni" rag'batlantiradigan va "farovonlik" ta'lim beradigan yapon uslubidagi darslar ruhini amalga o'zlashga harakat qilishayotganini ko'rib, hayratda qoldim.

Biz, yapon tarafidagi xodimlar, ushbu maktabda kadrlar almashinuvi imkoniyatlarini, ayniqsa universitetlar bilan aloqalarni qo'llab-quvvatlashni o'rganishni davom ettirmoqchimiz. O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi yaxshi munosabatlarni yanada kuchayishini ham istardim.

Keling birgalikda yo'lga chiqaylik. Bu hali yangi yo'l bo'lishi mumkin. Qo'rqmang. Kelgusi avlod ham unga ergashsa, yangi yo'llar yaratiladi. Kelajakni birgalikda yarataylik. Bugungi ochilish bilan tabriklayman.

Direktor o'rinbosari va ijrochi maslahatchi Hisao Shimomachi